

“QISHLOQ XO‘JALIGIDA AXBOROT KOMMUNKATSION  
TEXNOLOGIYALARI” FANIDAN AXBOROT TA‘LIM RESURSLAR VA  
UNING TA‘LIMDAGI AHAMIYATI

S.Rasulov


*TDAU “Axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrası dotsenti*

Respublikamiz ta‘lim muassasalarida so‘nggi yillarda talaba-yoshlarning qishloq xo‘jaligiga oid axborotlarni to‘plash, saqlash va qayta ishlash bosqichlari, qishloq xo‘jaligi ma‘lumotlari asosida grafik va diagrammalar tuzish va ularni shakllantirish, jihozlash hamda qishloq xo‘jaligida boshqaruv tizimi darajalari, o‘simliklarni himoya qilish vositalari, agrotexnik tadbirlar, hosil haqida ma‘lumotlarni saqlash va yuritishni tashkil etish va takomillashtirishga imkon beruvchi ta‘lim muhitini yaratishning me‘yoriy asoslari yaratilmoqda. Qishloq xo‘jaligida axborot kommunkatsion texnologiyalari fanini o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Elektron ta‘lim sharoitida qishloq xo‘jaligida axborot texnologiyalar asosida talabalarni tayyorlash jarayonini tashkiliy va pedagogik qo‘llab-quvvatlash samaradorligini o‘quv jarayonining sifat ko‘rsatkichlari asosida baholash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Sifat bilimlarni o‘zlashtirish va tajribani o‘zlashtirishda amalga oshiriladi va ularni baholash uchun biz V.P.Bespalko va A.V.Usova usullaridan foydalandik. Tayyorgarlik jarayonining sifati talabaning o‘qishga bo‘lgan munosabati natijasidir, bu motivatsion va hissiy tarkibiy qismlardan iborat. Motivatsiya muayyan xatti-harakatlarni, asosan, muayyan maqsadlarga erishishga imkon beradigan xatti-harakatlarni rag‘batlantiradi. Elektron ta‘lim sharoitida qishloq xo‘jaligida axborot texnologiyalar asosida talabalarni tayyorlashda axborot resurslar muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo‘jaligi ob‘yektning axborot resurslari. Resurs - biror narsaning zahirasini, manbasini anglatadi. Mamlakat milliy iqtisodining har qanday tarmog‘i tahlil etilayotganida uning tabiiy, mehnat, moliyaviy, energetik resurslarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu tushuncha iqtisodiy kategoriya sanaladi.





1-rasm. Qishloq xo'jaligi ob'yektning axborot resurslari

Moddiy resurslar jamiyat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan mehnat va xom-ashyolari majmuidir. Masalan, xom-ashyo materiallar, yoqilg'i-moylash materiallari, energiya, mineral o'g'itlar, yarim tayyor mahsulotlar, detallar va xakozo.

Shuni qayd etish lozimki, har qanday ko'lamdagi ob'ektning kerakli darajada ishlashi uchun faqat ushbu resurslarning o'zi etarli emas. Chunki ishlab chiqarish uchun moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari bo'lishning o'zi kifoya qilinmaydi. Uni qanday ishlatishni bilish, bu sohadagi texnologiyalar haqida ko'plab axborotga ham ega bo'lish talab etiladi. SHu bois ham axborot, axborot resurslari hozirgi kunda alohida iqtisodiy kategoriya sifatida qabul qilinmoqda. Agar, axborot resurslari oqilona tashkil etilsa va o'rinli foydalanilsa, u mehnat, moddiy va energetik resurslar ekvivalenti sifatida ishtirok etishi mumkin. Bundan tashqari axborot – qolgan barcha resurslardan samarali foydalanish va ularning isrof qilmaslikka yordam beradigan yagona resurs sanaladi.

Axborot resurslari – axborot tizimidagi (kutubxonalar, arxiv, jamg'armalar, ma'lumotlar banklari va hokazo) alohida hujjatlar va hujjatlarning butun bir majmuidir. Axborot resurslarini axborot tizimidagi barcha axborotlar hajmi deb tushunish mumkin. Boshqacha aytganda, axborot resurslari – moddiy tashuvchi vositalarda qayd etilgan va foydalanishi uchun mo'ljallangan barcha bilimlar demakdir.

Axborot, axborot resurslari har doim mavjud bo'lgan, ammo ularga o'z xususiyatiga ko'ra, iqtisodiy kategoriya sifatida qaralmagan. Jamiyat rivojlanib

borishi va texnologiyalarning murakkablashishi natijasida, axborot hajmi shunchalik ko‘payib ketdiki, uni boshqaruv sohasida qayta ishlamaslikning iloji bo‘lmay qoldi. Boshqaruv ierarxiasining paydo bo‘lishi, tovar - pul munosabatlarining yuzaga kelishi, hisoblash mashinalarining yaratilishi boshqaruv uchun katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlashda ushbu qiyinchiliklarni engish imkonini berdi.

Hozirgi paytda axborot hajmining ortishi va uning murakkablik darajasining yuksalishi axborot industriyasini barpo etishni talab etmoqda. Axborot mavjudligi mamlakatning rivojlanishi, tarmoqlar, iqtisodiy ob‘ektlar yuksalishini belgilab beradi. Axborot strategik resurs, axborot resurslari esa ulardan eng muhimi bo‘lib qoldi. Bu zahiraning umumiy foydalanadigan hajmi yaqin kelajakda davlatlarning strategik, shu jumladan mudofaa qobiliyatini belgilab beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Беспалько В.П. Педагогика ва ўқитишнинг илғор технологиялари. М.: Россия Мудofaa вазирлиги Касб таълими институтининг нашриёти, 1995 й.
2. Усова А.В. Формирование у учащихся учебных умений. Москва: Знание, 1987. – (Новое в жизни, науке, технике; № 7. Серия: Педагогика и психология).
3. Расулов С.Ш. Электрон таълим муҳитида қишлоқ хўжалигида ахборот коммуникатсион технологиялари фанини ўқитиш методикасини такомиллаштириш модели. Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборотлари илмий-назарий журнали. – Тошкент, 2023. (12-сон) – Б. 79-86.

